



## O'ZBEKISTONDA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI VA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI

*Suyunov Akmal Qo'ldoshevich*

*Termiz davlat universiteti Tarix fakulteti 2-kurs magistranti*

*Telefon: +998999444892*

*Ermuratov Ergash Chorshanbi o'g'li*

*Termiz davlat universiteti Tarix fakulteti 2-kurs magistranti*

*Telefon: +998932046944*

**Annotatsiya:** Mamlakatimizda mustaqillik yillarda fuqarolik jamiyatni institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari jadal shakllanishi va rivojlanishi, mahalla institutining jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyatini oshib berishdan iborat:

**Kalit so'zlar:** Fuqorolik jamiyat, mahalla, NNT lar, Jamoat tashkilotlar, Fuqarolar yig'ini raisi, Huquqiy davlat,

Mamlakatimizda mustaqillik yillarda fuqarolik jamiyatni institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari jadal shakllandi va rivojlandi. Ular mamlakatimiz aholisining keng qatlamlari tomonidan qo'lllab-quvvatlanmoqda. Shuning uchun ham fuqarolik institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlarining ahamiyati borgan sari oshib bormoqda. Chunki ular demokratik qadriyatlar, inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishning muhim omiliga aylanib bormoqda, fuqarolarning o'z iqtidorlarini ro'yobga chiqarishi, ularning ijtimoiy-iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish uchun sharoit yaratmoqda, jamiyatimizda turli manfaatlar muvozanatini ta'minlashga ko'maklashmoqda.

Mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat qurish jarayonida fuqarolik jamiyatining muhim tarkibiy qismi hisoblangan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan biri – mahallaning o'rni beqiyosdir. Mahalla – bu sharqona "demokratiya darsxonasi". O'zbekistonda fuqarolar yig'irlari va o'zini o'zi boshqarish organlari – mahallalarning soni 10 mingdan ortiqni tashkil etadi<sup>1</sup>. Shuningdek, bugungi kunda O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining samaradorligini oshirish masalalariga ham katta e'tibor qaratilgan bo'lib, ularning soni 9842 ta tashkil etmoqda. O'z o'rnida Surxondaryo viloyatida ham NNT lar qariyib 600 tadan ortiqni tashkil etadi<sup>2</sup>.

O'zbekistonda mustaqillik yillarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning zamirida, avvalo, inson g'oyasi va uning manfaatlari masalasi turadi.

<sup>1</sup> Маҳалла хайрия жамоат фонди Сурхондарё бўлими ҳисоботлари 2022 йил сентябрь

<sup>2</sup> Нодавлат нотижорат ташкилотлари Сурхондарё бўлими ҳисоботлари 2022 йил сентябрь



Chunki hamma zamonlarda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ko'rsatkichlari inson farovonligi, uning turmush tarzi va darajasi bilan belgilangan.

Inson hayoti va uning atrofdagilar bilan bo'ladigan munosabatlari, hayot tarzining bir maromda kechishi bevosita uning oilasida hukm suradigan tinchlik, xotirjamlik, yashab turgan hududidagi osoyishtalik va ijtimoiy-ma'anaviy muhitning barqarorligiga bog'liq.

Inson hayoti uni o'rabi turgan ijtimoiy muhit bilan uzviy bog'liq bo'lib, u kishilarning farovon hayot kechirishi va uzoq umr ko'rishi, sog'lig'iga katta ta'sir etadi. Chunki inson ana shu ijtimoiy muhitda, mahallada o'zining shaxsiy fazilati va xatti-harakatlarini namoyon etadi.

O'zbekistonda Fuqarolar yig'inlarining qonun hujjatlarida belgilangan vazifalari bilan bog'liq tadbirlar ijrosini ta'minlashda yig'in faollarining davlat organlari, jamoat tashkilotlari hamda hududiy profilaktika inspektorlari bilan hamkorlik qilishi muhim o'rin tutadi.

Bugungi kunda bu borada fuqarolar yig'inlari davlat organlari hamda jamoat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlikda quyidagi yo'nalishlardagi ishlarni amalga oshirishlari har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda:

- mahallalar va oilalardagi ijtimoiy-ma'anaviy muhit hamda ijtimoiy soha ob'ektlari faoliyatini o'rganish, aniqlangan muammolarni mutasaddilarga taqdim etish, shuningdek ularning bartaraf etilishi ustidan ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish ishlarni tizimli tashkil etish;
- mahallalarda yoshlarni oilaga tayyorlash, oilalarni mustahkamlash, oilaviy ajrimlarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilash va amalga oshirish;
- farzand tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi notinch oilalar bilan profilaktik tushuntirish ishlari olib borishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilash va amalga oshirish;
- aholi o'rtasida jinoyatchilik va huquqbazarliklarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilash va amalga oshirish;
- o'z joniga qasd qilish holatlarining oldini olishga qaratilgan zarur choralarini belgilash va amalga oshirish;
- turli zararli oqimlar ta'siriga tushib qolish holatlarining oldini olish, ekstremistik oqim a'zolari o'rtasida profilaktik ishlarni tashkil etish orqali ularni sog'lom hayotga qaytarish choralarini belgilash va amalga oshirish;
- aholi orasida ish bilan band bo'lmagan fuqarolarni aniqlash va ularning bandligini ta'minlash;
- mahallalarda xotin-qizlar uchun yaratilayotgan ish o'rinnari va ularning ish bilan ta'minlanganlik holatini jamoatchilik nazorati asosida tahlil qilib borish;
- mahallalarda o'g'il-qizlarni turli to'garaklarga jalb etish maqsadida aniq maqsadli chora-tadbirlar majmuasini belgilash va amalga oshirish;

- notinch oilalar farzandlari, jinoyatchilikka moyil yoki profilaktik hisobda turuvchi yoshlar bilan ishslash tizimini takomillashtirish, ushbu toifaga mansub yoshlarni ijtimoiy faol, tashabbuskor yoshlarga biriktirish borasida amalga oshiriladigan ishlar;

mahallalardagi uyushmagan yoshlar bilan ishslash, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish va bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish borasida amalga oshiriladigan ishlardan iborat bo'lmoqda.

Mahallalarda aholining turmush madaniyatini yuksaltirish, hududlarda sanitariya holatini yaxshilash, obodonlashtirish ishlarini tashkil qilishda davlat organlari va jamoat tashkilotlari, nodavlat notijorat tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikni yanada kuchaytirish bo'yicha fuqarolar yig'inlarida quyidagi tartibda tushuntirish ishlari olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda fuqarolar yig'inlari hamda nodavlat notijorat tashkilotlari hamkorligi asosida quyidagi ishlarni amalga oshirish muhim hisoblanadi.

Fuqarolar yig'ini raisi – oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish, turmush va uy xo'jaligi madaniyatini targ'ib etish, voyaga yetmaganlarning ta'limgarbiysi va davomatini nazorat qilish, to'y, ma'raka va boshqa marosimlarni ixcham o'tkazish hamda boshqa vakolati doirasidagi masalalar bo'yicha tushuntirishlar olib boradi;

Uy-joy mulkdorlari shirkati raisi (ko'p qavatlari turar joylarda) – shirkat tasarrufidagi uy-joylarni mavsumga tayyorlash, unda lift, yerto'la, kirish yo'laklari, chordoq, tom qismi va boshqa qismlarning sozligini ta'minlash, o'ziga tegishli hududni obodonlashtirish, bolalar maydonchalarini tartibga keltirish, maishiy chiqindilarni o'z vaqtida olib ketilishini ta'minlash, shirkat a'zo (fuqaro)lari tomonidan communal to'lovlarning o'z vaqtida to'lanishini tashkil qilish va boshqa vakolati doirasidagi masalalar bo'yicha tushunchalar beradi;

Bandlikka ko'maklashish markazi inspektori – ishsizlar ro'yxatlarini yuritish, ish kvotalari bo'yicha axborot berish, ish bilan ta'minlash chorasi ko'rish va boshqa vakolati dorasidagi masalalarda yordam beradi;

**Tuman gaz idorasi inspektori** – oilalarning tabiiy gaz (gaz balon) bilan ta'minlanishini, aholi o'rtaida gazdan tejamkorlik bilan foydalanish, noqonuniy isitish moslamalaridan foydalanishning oldini olish, foydalanilgan gaz to'lovini undirish bo'yicha chora-tadbirlar, yong'in xavfsizligining oldini olish va boshqa vakolati doirasidagi masalalar bo'yicha tushuntirish ishlari olib boradi;

Oilaviy poliklinika (qishloq vrachlik punkti) hamshirasi – oilalar o'rtaida tibbiy madaniyat, sanitariya-gigiena qoidalariga rioya qilish, uy-xo'jaligi madaniyatini ta'minlash va boshqa vakolati doirasidagi masalalar bo'yicha tushuntirish ishlari olib boradi;

Ta'limgarbiy muassasa (bog'cha, maktab, kollej, litsey)lari direktori – hududidagi yer maydonlarini obodonlashtirish ishlarini tashkil etish, bolalar va o'quvchilar o'rtaida

odob-axloq qoidalari va sanitariya gigiena talablariga rioya etish, ta'lim-tarbiya sifatini oshirish kabi vakolati doirasidagi masalalarda ota-onalar bilan tushuntirish ishlari olib boradi;

- o'quvchi-yoshlarning dars mashg'ulotlariga to'liq qatnashishini ta'minlash;
- notinch, noqobil, kam ta'minlangan oilalarda tarbiyalanayotgan bolalarning tarbiyasi bilan individual ravishda shug'ullanishni tashkil etish;
- sababsiz dars mashg'ulotlariga qatnashmayotgan o'quvchilarning ota-onalariga nisbatan tarbiyaviy ta'sir choralarini ko'rish maqsadida tushuntirish ishlarini tashkil qilish;
- ta'lim muassasasida tahsil olayotgan o'quvchi-yoshlarning darsdan bo'sh paytalarini unumli tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Xotin – qizlar bilan ishslash va oilalarda ma'naviy va axloqiy tarbiyani mustahkamlash bo'yicha mutaxassis - oilaviy madaniyat, turmush tarzi, qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash va boshqa vakolati doirasidagi masalalar bo'yicha tushuntirish ishlari olib boradi;

Yig'in mas'ul kotibi – kam ta'minlangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj, boquvchisini yo'qotgan oilalar, ishsizlar va boshqalar ro'yxatlarini tuzish, ularga belgilangan moddiy yordam va nafaqalarning o'z vaqtida to'lanishi, moddiy yordam va nafaqa oluvchilar tomonidan communal, soliq va boshqa majburiy to'lov larning o'z vaqtida to'lanishi kabi vakolati doirasidagi masalalarda tushuntirish ishlari olib boradi;

Ichki ishlar profilaktika inspektori – oilalarga "Pasport rejimi qoidalari"ga amal qilish, ishsizlar hamda chetdavlatga ketgan va kelgan fuqarolar ro'yxatini yuritish, oila a'zolari bilan profilaktik ishlarni amalga oshirish va boshqa vakolatiga doir masalalarda quyidagi omillarga asosiy e'tibor qaratadilar:

- oilalarning ijtimoiy-ma'naviy holati;
- ota-onsa va farzandlarning huquqiy savodxonligi;
- oilalarning mahalla hududida qonun ustuvorligi va osoyishtalikni ta'minlashdagi ishtiropi;
- oila a'zolarining jamiyatda o'rnatilgan yurish-turish qoidalari va axloq-odob mezonlariga rioya qilishlari holati;
- fuqarolar tomonidan pasport rejimiga amal qilinishi;
- yong'in va harakat xavfsizligiga rioya qilinishi;
- xotin-qizlar manfaatlarining himoya qilinishi;
- ichkilikbozlik va giyohvandlikning oldini olish;
- oilaviy turmush doirasidagi huquqbazarliklarning kelib chiqish sabablari;
- jamiyatga zid xatti-harakatlari bilan farzandlari tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi yoki ular tarbiyasi bilan shug'ullanmaydigan ota-onalar;
- notinch va noqobil oilalar, voyaga yetmaganlarni turli huquqbazarliklar sodir etishga undovchi shaxslarni aniqlash;

- yoshlar ongini zaharlab, ularni turli diniy ekstremistik g‘oyalar ta’siriga olishga qaratilgan turli noqonuniy targ‘ibot ishlari bilan shug‘ullanayotganlar;
- o‘smirlarga qonunga xi洛of ravishda diniy ta’lim berish;
- tarbiyasi og‘ir voyaga yetmaganlar;
- oiladagi ishsizlar;
- noqonuniy ravishda xonadonda istiqomat qilayotgan, uzoq muddatdan buyon uyiga kelmayotgan va o‘z uyida yashamayotgan, o‘z uyini ishratxonaga aylantirgan, qo‘shmachilik bilan shug‘ullanayotganlar;
- to‘y, ma’raka va boshqa marosimlarning o‘tkazilishi;
- jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan shaxslarning oilalari, ularning farzandlariga bo‘lgan munosabati;
- nizoli oilalar va nikohdan ajralishi holatlari va boshqa tegishli masalalar.

Mahalla fuqarolar yig‘iniga biriktirilgan imom-xatiblar:

- aholi o‘rtasida kiyinish madaniyatiga rioxva etish, tinchlikning qadriga yetish, uni asrab-avaylash har bir fuqaroning vazifasi ekanligini aholiga tushuntiradi;
- ota-onalarga o‘z farzandlarining turli zararli oqimlar, o‘z joniga qasd qilish va “ommaviy madaniyat”ning salbiy illatlari ta’siriga tushib qolmasliklari uchun farzand tarbiyasiga e’tibor berishlari lozimligini, ichimlik suvi, gaz, elektr tokini isrof qilish uvol ekanligini, uvol qilish esa gunoh ekanligini hadisi-shariflarda, diniy adabiyotlarda belgilangan nuqtai-nazardan yondashgan holda hayotiy misollar orqali tushuntirib beradi;
- mahallada istiqomat qilayotgan oilalarda barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarni “ommaviy madaniyat”ning salbiy illatlari, ekstremizm va aqidaparastlik mafkurasining ongi zaharlaydigan ta’siridan, giyohvandlik, fohishalik va boshqa salbiy ko‘rinishlardan himoya qilish uchun zarur bo‘lgan ma’naviy-axloqiy muhitni barpo qilish maqsadida mahalla faollari va profilaktika inspektori bilan birgalikda xonadonlarni o‘rganishda qatnashadi;
- spirtli ichimliklarga muntazam ravishda ruju qo‘yan, giyohvand, o‘z uyini ishratxonaga aylantirgan, fohishalik bilan shug‘ullanayotgan shaxslarning oilasiga kirib borish orqali oila a’zolarining turmush tarzi va muammolarini o‘rganib chiqadi va ularning ushbu salbiy illatlar bilan shug‘ullanmasliklariga ko‘maklashish ishlarini olib boradi;
- mahallada turli ekstremistik oqimga mansub bo‘lgan shaxslar, yarim-yalang‘och behayo kiyimlar kiyib yuruvchi xotin-qizlar hamda o‘z qizlarini hijobda yurishga undovchi ota-onalar bilan mahallalardagi otinoyi ayollar hamkorligida tushuntirish ishlarini olib boradi.

“Oila-mahalla-ta’lim muassasasi” hamkorligi jamoat kengashi – jismonan sog‘lom, ma’naviy yetuk va har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalashda oila instituti, ota-onalar va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish

organlarining ta’lim muassasalari bilan o‘zaro hamkorligini mustahkamlash maqsadida tashkil etilgan bo‘lib, quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshiradi:

- ✓ ota-onalarning farzandlar tarbiyasidagi o‘rni, majburiyati, mas’uliyati va farzandlar bilan o‘zaro munosabatlarini mustahkamlashga ko‘maklashish;
- ✓ ta’lim muassasalaridagi ta’lim-tarbiya sifati-ni o‘rganish va ularni yanada takomillashtirishga oid tadbirlarni amalga oshirish;
- ✓ qonunchilik talablaridan kelib chiqib ta’lim muassasalariga yaqin hududlarda alkogolli va tamaki mahsulotlari sotilishiga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha jamoatchilik nazoratini o‘rnatish;
- ✓ ta’lim tizimidagi islohotlar haqida ota-onalar va keng jamoatchilikning uzviy ma’lumotga ega bo‘lishlarini ta’minlash;
- ✓ o‘quvchi-yoshlarning zararli odatlar yo‘liga kirishiga sabab bo‘layotgan omillarga qarshi manzilli profilaktik tadbirlarni amalga oshirish.

Xullas, xalqimizning tarixiy merosi, urf-odatlari va milliy tarbiya an’analarni asrab-avaylash, keng aholi qatlamlari, ayniqsa, yoshlarimiz o‘rtasida dinlararo bag‘rikenglik, millatlararo totuvlik va o‘zaro mehr-oqibat muhitini mustahkamlash, aholi bandligini ta’minlash, huquqbuzarlik va jinoyatchilikka barham berish hamda hududlarni obodonlashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va joriy etish kabi masalalarda fuqarolar yig‘inlari hamda davlat va nodavlat tashkilotlarning samarali hamkorligi yurtimizda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Uzoq o‘tmish tariximizga nazar solganda, “Mahalla” arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, “joy” degan ma’noni anglatadi. Tarixchi olim Narshaxiy “Buxoro tarixi”<sup>3</sup> asarida bundan 1100 yil ilgari mahalla xalqning boshqaruvi ekanini yozgan edi. “Mahalla” atamasiga Mahmud Koshg‘ariy “Devonu lug‘atit-turk”<sup>4</sup>, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”<sup>5</sup> asarlarida ham izoh berilgan. Qadimda mahalla nafaqat ijtimoiy, balki, ma’muriy-hududiy tuzilma tarzida ham e’tirof etilgan. Alisher Navoiyning “Hayratul-abror” (“Yaxshi kishilarning hayratlanishi”) asarida quyidagi band uchraydi:

Shaharlar otini mahalot etib,  
Bo‘ldi chu yuz shahar Hiri ot etib.

Mahallaning “joy” degan mazmuni yuqoridagi tashbehdan ko‘rinib turibdiki, o‘rta asrlarda Hiri deb atalgan Hirot shahri yuzta kichik “shaharcha” - mahallalardan tashkil topgan ekan.

<sup>3</sup> Абу Бакр Мухаммад ибн Наршахий. Бухоро тарихи. Т, ФАН нашриёти. –Т.: 1966.Б 227.

<sup>4</sup> Махмуд Қошғарий Туркй сўзлар девони (Девони луғотит турк). З жилд. Тарижимон ва нашрга тайёрловчи, Солиҳ Муталибов. Тошкент, : Фан, 1963.-124 б

<sup>5</sup> Юсуф Хос Хожиб. Қутадғу билиг” (Саодатга бошловчи билим). Нашрга тайёрловчи Қ.Каримов. Маъсул мұхаррир С.Муталибов, С Шукuros.Т.Фан. 1971-Б 219

O‘zbekiston davlat mustaqilligiga erishganidan so‘ng mahalla faoliyatining huquqiy asoslari yaratildi. Bunda mahallalar hayoti bilan bog‘liq ko‘p masalalar bilan bir qatorda mahalla oqsoqolini saylash tartiblari ishlab chiqildi. Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi mamlakatimiz hayotida muhim o‘rin tutadi. Bu saylov demokratizm, oshkorlik va teng saylov huquqi asosida o‘tkaziladi.

Fuqarolik jamiyatni institutlari tizimida o‘zini o‘zi boshqarish organlari (mahalla)ning o‘rni beqiyosdir. Chunki boshqa mamlakatlardan farqli o‘laroq, mahalla instituti yurtimizda ming yillar davomida sinalgan va chuqur ildiz otgan, aholini birlashtirib turadigan ijtimoiy hodisa sifatida rivojlanib kelmoqda. Ayniqsa, uning hozirgi bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida xalqimizning urf-odatlari, an’analari va qadriyatlarini saqlab qolish, ularni jipslashtirish kafolati sifatida maydonga chiqayotganligini yaqqol ko‘rib turibmiz.

Mahalla o‘zini o‘zi boshqarish organlarining eng yorqin ko‘rinishi, ayni paytda fuqarolik jamiyatining asosi va tayanchi deb tan olinganligi bilan ham o‘zining yuksak mavqeiga ega. Mustaqillik yillari mobaynida jamiyatdagi boshqaruvin tizimlarini isloh qilish, davlat vazifalarini jamoat tashkilotlariga bosqichma-bosqich o‘tkazish, ya’ni kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga o‘tish borasidagi ishlar izchil davom ettirib kelinmoqda.

Ming yillar davomida insoniyatning buyuk daholari tomonidan e’tirof etilgan, sharqona demokratiyaning asosiy tamoyillariga va jamoa fikriga asoslangan, o‘zbek xalqining an’naviy urf-odatlarini, tarixiy milliy davlat boshqaruvi madaniyatini va xalq, jamiyat boshqaruvi tizimini aholiga singdirish uchun xizmat qiladigan ijtimoiy tuzilma mahalla deb atab kelingan. U o‘zbek milliy taraqqiyot modelining tarkibiy yo‘nalishlaridan biri sifatida qabul qilindi.

Fuqarolar yig‘inlarida ushbu vazifalarni hal qilishda “**Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida**”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga tegishli o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish yuzasidan taklifni ilgari surar ekan, bunda mahallani aniq yo‘naltirilgan asosda aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, xususiy tadbirdorlik va oilaviy biznesni rivojlantirish markaziga aylantirish, shuningdek, uning davlat boshqaruvi organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati olib borish tizimidagi vazifalarini yanada kengaytirishga jiddiy e’tibor qaratish lozimligini alohida ta’kidlab o‘tilgan. Shu bilan birga “Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari raislari saylovi tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha oqsoqollar va ularning maslahatchilari eng munosib fuqarolar ichidan saylanishini, fuqarolar ijtimoiy faolligini kuchaytirishda mahallaning ahamiyati va roli oshirilishini ta’minlaydigan chora-tadbirlarni nazarda tutadigan o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish vazifalari amalga oshirildi.

Shuning uchun ham bugungi kunda ana shu jaoayonlarning mohiyatida: Islahot islahot uchun emas, avvalo inson uchun, uning farovon hayoti uchun xizmat qilishi kerak, -degan maqsad mujassam ekanligi va uning amaliy ifodasini barcha sohalarda ko‘rish . kuzatish mumkin. Aynan ushbu mezonlar asosida boshqariladigan, kuchli huquqiy davlat,- kuchli fuqarolik jamiyatni demakdir.

Huquqiy davlat va fuqarlik jamiyatining o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan ikki jihat, ikki qanotidir. Aynan shu boisdan mamlakatimizda “Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyatni sari” konsepsiyasining ishlab chiqilishi va bu g‘oyani kuchli amalga oshirish oshirish masalasi juda katta e’tibor qaratilish bejizga emas.

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatni – ijtimoiy makon sifatida nufuzi va salmog‘i ortib bormoqda. Bu makonda qonun ustuvor bo‘lib, u insonning o‘z- o‘zini kamol tptirishiga monelik qilmaydi, aksincha, yordam beradi. Shaxs manfaatlari Uning huquq va erkinliklari to‘la darajada ro‘yobga chiqarishiga ko‘maklashadi. Ayni vaqtida boshqa odamlarning huquq va erkinliklari kamsitilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Ya’ni erkinlik va qonunga bo‘ysunish bir vaqtning o‘zida amal qiladi, bir-birini to‘ldiradi va bir-birini taqozo etadi. Boshqacha aytganda, davlatning qonunlari inson va fuqaro huquqlarini kamsitmasligi lozim. Shuning barobarida barcha odamlar qonunlarga so‘zsiz rivoja qilishlari shart.

**Fuqarolik jamiyatni** institutlarining rivojlanib borgani sari ularning davlat va hokimiyyat tuzilmalari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdagi faolligi yanada kuchayib bormoqda. Aytish mumkinki, jamoatchilik nazoratining ta’sirchanligi bois kishilar qalbida va ongida jamiyatimiz hayotida ro‘y berayotgan tub ijobiy o‘zgarishlarga nisbatan kechayotgan xayriyohlik va birdamlik kayfiyati faollashmoqda. Fuqarolik jamiyatini shakllantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri – bu nodavlat va jamoat tashkilotlarini rivojlantirishdir.

Bugungi kunda mamlakatimizda jamiyat hayotining turli sohalarida faoliyat yuritayotgan nodavlat notijorat tashkilotlari fuqarolik jamiyatni institutlari tizimida markaziy o‘rin tutadi. Shuning uchun ular faoliyatini rivojlantirish, ularning mustaqilligini to‘la ta’minalash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, faoliyatini tashkiliy-huquqiy, moddiy-texnikaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan “**Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolotlari to‘g‘risida**”gi **Qonunning<sup>6</sup>** qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etdi. Bu qonunni qabul qilishdan maqsad quyidagilarda ifodalanadi:

— NNTlarini yanada rivojlantirish;

<sup>6</sup> Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 31 июлдаги 562-сон қарори билан тасдиқланган “Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органларида жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари билан ишлаш тартиби тўгрисида”ги Намунавий низом. // “Маҳалла” газетаси, 2017 йил 17 август // www.lex.uz

- ularning mustaqil ish yuritishini ta'minlash;
- ularning chinakam mustaqilligini ta'minlash;
- ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;
- ular faoliyatini tashkiliy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish;
- ular faoliyatini moddiy-texnik jihatdan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish.

Ma'lumki, har qanday tashkiliy tuzilmaning mohiyati va mazmuni u olib boradigan funksiyalar va faoliyat yo'nalishlarida yorqin ifodalanadi. Jamoat tashkilotlarining funksiyalari ham ularning jamiyat hayotiga nisbatan muayyan faoliyatni amalga oshirishlari orqali ta'sir ko'rsatishlarida namoyon bo'lishi shubhasiz.

Jamoat tashkilotlarda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning samarasi va davomiyligini ta'minlash borasidagi faoliyatni quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tahlil etish mumkin:

**Birinchidan**, fuqarolik jamiyatining muhim tarkibiy instituti hisoblanadigan jamoat tashkilotlarining birlamchi va asosiy funksiyasi, ularning davlat hokimiyatini muayyan darajada chegaralash, ya'ni davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish ekanligini e'tirof etish joiz. Aytish mumkinki, jamoat tashkilotlarining roli aynan demokratik jarayonlarning rivojlanish davrida uni qo'llab-quvvatlash va mustahkamlashda ko'rindi.

**Ikkinchidan**, mamlakatimizda jamiyatni demokratlashtirish va isloh qilish jarayonida siyosiy partiyalar muhim funksiyalarni amalga oshiradilar. Siyosiy partiyalarning asosiy funksiyasi alohida olingan fuqarolar, ijtimoiy qatlamlar va guruhlar manfaatlarini birlashtirib, ularni siyosiy manfaatlar majmuasi darajasiga ko'tarish, shuningdek, bu uyg'unlashgan manfaatlarning jamiyat uchun bir xilda ahamiyat kasb etishini ta'minlay olishdir.

Bugungi kunda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan siyosiy partiyalar mavjud konstitutsiyaviy huquq me'yorlari doirasida, shuningdek, fuqarolarning huquq va erkinliklariga daxl qilmagan holda shakllanib kelayotgan siyosiy jarayonlar va munosabatlar tamoyillari doirasida muqobil siyosiy yo'llarni ifoda etuvchi vosita sifatida faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Har bir partyaning o'z dasturi va maqsadlariga mos ravishda nazariy, mafkuraviy, siyosiy va tashkiliy funksiyalari bo'lib, ular partiya faoliyati va ichki hayotining ajralmas qismidir.

**Uchinchidan**, jamoat tashkilotlarining eng ommaviy shakllaridan biri hisoblangan kasaba uyushmalari jamiyatning ijtimoiy taraqqiyotiga sezilarli darajada ta'sir o'tkazadilar. Ta'kidlash joizki, ushbu institutning ijtimoiy jarayonlardagi ta'siri faqatgina mehnat munosabatlari bilan chegaralanib qolmasdan, balki undan ham kengroq doiraga qaratilgan.

Hozirgi kunda deyarli barcha jamoat tashkilotlari mamlakatni demokratik yo'nalishda rivojlantirish, muayyan sohalar yuzasidan insonning huquq va erkinliklarini himoya qilish, davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan samarali

nazorat o'rnatish kabi masalalarga o'zlarining asosiy faoliyat yo'nalishlari sifatida qaramoqdalar. Jamoat tashkilotlariga birlashgan fuqarolar ular orqali o'zlarining turli xil manfaatlari va huquqlarini amalga oshirishni ko'zlaydilar. Bunday sharoitda jamoat tashkilotlari oldiga fuqarolarning davlat ishlarini amalga oshirishda ishtiroklarini ta'minlash hamda ularning mavjud qonunchilikka nisbatan ijobiy munosabatlarini shakllantirish va shu orqali ularni qonunga itoatkor shaxs sifatida tarbiyalash kabi yangi vazifalar qo'yilmoqda.

Jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida insoniyat oldiga muayyan maqsad va vazifalarning qo'yiliши hamda yangidan-yangi muammolarning yuzaga kelishi o'z navbatida, jamoat tashkilotlari faoliyat yo'nalishlarining o'zgarib borishi, o'z-o'zidan uning o'zgacha mohiyat kasb etishiga olib keladi. Binobarin, jamoat tashkilotlari bugungi kunda jamiyatni demokratlashtirish va isloh qilish jarayonining ajralmas va zaruriy bo'g'iniga aylanib bormoqda. Bunday sharoitda ularning funksiyalari doirasi kengayib borishi hamda turli xil shakllarda namoyon bo'lishi ob'ektiv xususiyatga egadir.

### FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 31 iyuldagи 562-son qarori bilan tasdiqlangan "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risida"gi Namunaviy nizom. // "Mahalla" gazetasi, 2017 yil 17 avgust.// [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
- 2.O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonuni. // "Xalq so'zi" gazetasi, 2013 yil, 23 aprel.
- 3.O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonuni.// [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
- 4.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 fevraldagи "Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4944-sonli Farmoni. // "Xalq so'zi" gazetasi. 2017 yil 4 fevral.
- 5.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2 apreldagi "Aholi muammolari bilan ishlashda mahalla institutining mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5700-son Farmoni. // "Xalq so'zi" gazetasi. 2019 yil 4 aprel.
7. Mahalla xayriya jamoat fondi Surxondaryo bo'limi hisobotlari 2022 yil sentyabr
8. Nodavlat notijorat tashkilotlari Surxondaryo bo'limi hisobotlari 2022 yil sentyabr
9. Абу Бакр Мухаммад ибн Наршахий. Бухоро тарихи. Т, ФАН нашриёти. –Т.: 1966.Б 227.
10. Maxmud Qoshg'ariy Turkiy so'zlar devoni (Devoni lug'otit turk). 3 jild. Tarijimon va nashrga tayyorlovchi, Solih Mutallibov. Toshkent, : Fan, 1963.-124 б
11. Yusuf Xos Xojib. Qutadg'u bilig" (Saodatga boshlovchi bilim). Nashrga tayyorlovchi Q.Karimov. Ma'sul muharrir S.Muttalibov, S Shukurov.T.Fan. 1971-Б 219
- 12.Tursunov.S. Jo'raev. B Mahalla-mustaqlil yurt tayanchi\–T: "Muharrur" nashriyoti, 2012.252 b.